Bitiruv malakaviy ishning ahamiyati. Yangi turdagi bu sut maxsulotining e'tiborli tomonlaridan biri uzoq vaqt davomida yetiladigan pishloq maxsuloti chet el olimlarining o'tkazgan tajribalarini takrorlamagan holda amalga oshirish lozim bo'ladi. Chunki zamonaviy texnologiyalar orqali ishni tashkil etishda inavatsion texnologiyalarni qo'llagan holda ommabop bo'lgan maxsulot olish juda katta samarali bo'ladi. Negaki yangi turdagi bu maxsulot iste'molchilrni o'ziga tez jalb etadi va shuning bilan bir qatorda foydali jihatlari shu turga o'xshash maxsulotdan yuqori sifatda turishi bilan ahamiyatli bo'ladi. Men ishlab chiqargan echki sutidan tayyorlangan qattiq pishloq hamma uchun foydali bo'lgan maxsulot hisoblanadi. Chunki keksalar va yosh bolalar ratsioniga juda kerakli ozi-ovqat maxsuloti bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham bir necha tekshirish va kuzatishlar orqali yangi turdagi bu maxsulotni ishlab chiqdim. Bir xil turdagi maxsulotlar hamisha ham samara bermaydi. Chunki yillar davomida o'zgarishlar natijasida yangilikka ehtiyoj ortib borishini inobatga olgan holda shu tarmoq bo'yicha ishlashni maqbul ko'rdim. Bir necha laboratoriya ishlari va tajribalar orqali ishni to'g'ri tashkil etish uchun izlanishlar olib bordim. Bu jihatlar ham yangi turdagi maxsulot sifatini yuqori darajaga olib chiqish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Bu maxsulot organism uchun juda foydali parhezboq maxsulotlar sirasiga kiradi. Xorijiy davlatlarda ishlab chiqariladigan shu turdagi maxsulotlarni o'zimizda yangi brendini hosil qilish ishning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu ishlarni yanada rivojlantirish viloyatimizda turizm salohiyatini oshirish hamda eksport maxsulotlar unumini oshishiga xizmat qiladi. Shularni inobatga olgan holda mavzu bo'yicha to'liq ma'lumotlar olishga harakat qildim. Natija esa samara keltirdi. Yangi turdagi pishloq maxsuloti aholi iste'moli uchun foydali bo'lishi bilan juda ahamiyatli hisoblanadi. Keyinchalik bu ishning uzviy bog'lagan holda yanada takomillashgan texnologiyalar orqali ish tashkil etish davlatimiz rivojiga yanada katta xissamizni qo'shish uchun sharoit hisoblanadi. Barcha fermer xo'jaliklarida sut yetkazib berishni takomil rejasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

II. TANLANGAN MAVZU BO'YICHA JAHON ADABIYOTLARINING VA PATENTLARNING QISQACHA TAHLILI

O'rta Osiyoda, Kavkazorti, Isroil va ba'zi xorijiy mamlakatlarda **echki** suti ko'p iste'mol qilinadi. Himolayning Pokiston qismidagi vodiylarda yashovchi kalasha xalqida yakkayu-yagona qimmatli mulk-echqilardir. U yerdagi xalqni hamma mahsulotlar: sut, Go'sht, jun, va teri bilan echkilar ta'minlaydi. [10]

Echki suti kimyoviy tarkibi jihatidan sigir sutidan qolishmaydi. Ba'zi ko'rsatkichlari jihatidan ustun turadi. Echki sutida albumin va globulin - eng qimmatli sut oqsillari deyarli ikki barovar ko'p. Bu sutda yog' ko'proq lekin, yog' sharchalari sigir suti yog' sharchalaridan ikki baravar mayda bo'lib, inson organizmida tez, yaxshi hazm bo'ladi. Yosh organizm uchun kerakli A va D vitamini ko'proq bo'ladi. SHu sababdan echki suti inson sutiga yaqin bo'lib, emizikli bolaga berish tavsiya etiladi.

Echki yelinini sog'ishdan oldin yaxshilab yuvish zarur, sababi yelinidagi yog' bezlari uchuvchan kislotalar chiqarib turadi.

Echki sutini qo'y sutiga qo'shib oq pishloq, brinza va jaydari sho'rtak pishloqlar tayyorlanadi. Har sog'ish davrida bir bosh echkidan 150-250 kg sut olinadi. Echki suti tarkibida 13, 0% quruq modda, 4,1% yog', 3,5% umumiy oqsil, 4,4% sut shakari, 0,8% mineral modda bo'lib, zichligi 30°A, kislotaliligi - 17°T bo'ladi.

Isroil mamlakatida, Nazaret shaxri yaqinidagi "Kaduri" sutni qayta ishlash kichik sut zavodida bir kunda 5-10 tonna qo'y va echki suti qayta ishlanib, pishloq va brinza tayyorlanadi. Bu mahsulotlarni Amerika, Kanada, Angliya mamlakatlariga ham sotishadi [11]

Pishloq - eng qimmatli parhez bop sut mahsuloti bo'lib, sut konsentratidir. Oqsillar, yog'lar, vitaminlar, mineral tuzlar sutda qanday nisbatda bo'lsa, pishloqqa ham xuddi shunday nisbatda o'tadi. Pishloq uchun asosiy oqsil - kazeindan foydalaniladi.

Pishloqni – oqsilli - yog'li sut qonsentrati ham deyiladi. Pishloqda o'rtacha 22-30% yog', 20-25% -oqsil bo'ladi. Sutni chiritish va pishloq tayyorlash texnikasini Aristotel (eramizdan avvalgi 284-322 yillar) yozib qoldirgan. [12]

Pishloq ishlab chiqarishda hal qiluvchi omillar sutning kimyoviy tarkibi, fizik xususiyatlari va mikrobiologik xususiyatlaridir. Bu omillar pishloq unumini aniqlash, ya'ni uning quyuqlashib qolishqobiliyati, laxta shakllantirish to'g'ri zichligi va achish va foydali mikroorganizmlar va birinchi navbatda, sut kislota bakteriyalar rivojlanishi va faoliyati uchun zarur sharoit yaratish qobiliyatidir. [13]

Pishloq chiqishi sutning tarkibi va xususiyatlariga bog'liq, balki pishloq ishlab chiqarish biotexnologiyasiga bog'liq. Misol uchun qattiq pishloq ishlab chiqarishda eng muhim ko'rsatkichlar yog' kislotali bakteriyalar sporalari va shirdoni ivish usuli bo'lsa, sut achitqili pishloqlar ishlab chiqarishda ular muhim ro'l o'ynamaydi. Shuning uchun, pishloq unumi haqida gapirganda, qattiq pishloq ishlab chiqarishda shirdon fermenti inobatga olinadi. Shuni takidlash kerakki, ishlab chiqarish darajasi, ilg'or texnologiya qo'llanishiga, yangi uskunalar soniga va shirdon fermenti tasirida sutning ivishiga bog'liq. Biroq elita pishloqni yuqori unumini ta'minlash uchun sutning sifati normal meyorda bo'lishi kerak. [10]

Hozorgi kunda mamkakatimizda qo'y va echkilardan pishloq ishlab chiqarishni yangi bosqichi boshlandi. Buning uchun qo'y va echkilarning sutiga bir muncha talablar qo'tiladi. Undan tashqari xarakatdagi GOST P 52054-2003 pishloq ishlab chiqarish uchun tabiiy sutlarga qo'yiladigan talabga bo'y sunishi kerak. Quyida pishloq ishlab chiqarish uchun sutga qo'yiladigan talablari "Sariyog'chilik va pishloqchilik butun Rossiya ilmiy –tekshirish institute Davlat instituti" ma'lumotlarida keltirilgan. Bu texnik shart sut xom ashyolari (sigir, echki, qo'y)dan xar xil turdagi pishloqlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bu hujjatga asosan: [10]

1. Sut sog'lom sigirdan olingan, bir podaga tegishli, yuqumli kasalliklarga chalinmagan, sanitariya gigiyena qoidalariga to'g'ri kelishi kerak.
2. Sutda ingibiterlarning bo'lmasligi, muzlamagan bo'lishi, issiqlik ishlov berish ta'siri buzilmagan bo'lishi, tug'riqni boshlanishini dastlakdi 7 kunidagi sut aralashmagan bolish kerak.
3. Orgonoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi 3- jadvalga to'g'ri kelishi kerak.

Pishloq ishlab chiqarish xom sutning organoleptik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	Sut xususiyatlari mazmuni		
	Sigir suti	Echki suti	Qo'y suti
konsistensiyasi	Cho'kmalarsiz va quydalarsiz bir jinsli suyuqlik		
Ta'mi va hidi	Hoza , begona xid va tamsiz, yangi sigir sutiga xos bo'lishi.	Echki suti xususiyatlariga xos, begona xid va tamlarsiz bo'lishi	Qo'y suti xususiyatlariga xos, begona xid va tamlarsiz bo'lishi
Rangi	Oqdan rangdan och-sariq ranggacha		Oq, kulrang dog'li

4. fizik- kimyoviy ko'rsatkichlarida binoan sutlar quyidagi 4-jadvaldagi meyorlarga to'gri kelishi kerak.

4-jadval

Pishloq ishlab chiqarish uchun sutning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari [9]

Ko'rsatkichlar	Sut ko'rsatkichlari		
	Sigir suti	Echki suti	Qo'y suti
Kislotaliligi , °T	16,0 dan 19,0 gacha	17,0 dan 28,0 gacha	20,0 dan 28,0 gacha
zichligi, kg/m ³ , dan am emas	1027,0*	1028,0	1032,0

Qozalik darajasi	L		
Qozsil miqdori, %, dan kam emas	2,8	3,0	5,0
Qozog' miqdir, %, dan kam emas	3,1	3,0	4,0

Echki sutidan sir olish. Echki sutidan tayyorlangan pishloqni qimmatini baholamaslikni iloji yo'q. Birinchidan echki sutidan tayyorlangan pishloq qoramol sutidan tayyorlanganiga qaraganda organizmda yaxshi o'zlashtiriladi. Ikkinchidan, echki sutida katta miqdor foydali bakteriyalar mavjud bo'lib, u faqatgina oshqozon ichak tizimi ishini tiklab qolmay, organizmda modda almashinish jarayonini yaxshilaydi. Bundan tashqari, echki sutidan tayyorlangan pishloqni foydali tomoni shundaki, u umuman allergiya chaqirmaydi. Qoramol sutidan tayyorlangan barcha mahsulotlarga allergiyasi tufayli azob chekayotgan insonlar uchun bu almashinmaydigan mahsulotdir.

Echki sutidan tayyorlangan pishloq qoidaga ko'ra ko'proq mayin va xushbo'ydir. Echki sutidan tayyorlangan pishloq kam qand tutadi va qoramol sutidan tayyorlangan pishloq bilan solishtirganda ancha ko'p foydali va ozuqaviy moddalarga boy, bu mahsulot o'z ratsioniga ancha talabchandir. [12]

Echki sutidan tayyorlangan pishloqni germetik berkitiladigan idishda va sovutkichda saqlanishi kerak, aks holda boshqa mahsulotlar hidini o'ziga tezda singdirib oladi. Echki sutidan tayyorlangan yumshoq pishloq ikki hafta saqlanishi mumkin, qattiq pishloqni esa ikki, uch oy mobaynida saqlasa bo'ladi. Oshpazlikda echki sutidan tayyorlangan pishloq mustaqil taom sifatida (masalan yangi non bulochkasiga surtilgan mayin massa) yoki salatlarga qo'shimcha ingedriyent sifatida foydalaniladi .

Banon – katta bo'lmagan o'lchamdagi echki sutidan tayyorlangan, dumaloq, yumshoq, fransuz pishlog'i, u albatta kashtan yaproqlariga o'ralgan holda tortiladi.

Brinza – qo'y sutidan, ayrim hollarda echki va qo'y suti aralashmasidan tayyorlangan va namakobda ushlangan mahsulot.

Pelardon - echki sutidan tayyorlangan keskin xushbo'y hidli, yumshoq fransuz pishlog'i.

Pikadon (Picadon)- katta bo'lmagan dumaloq shakldagi (fransuzlar uni shayba deyishadi), diametri 7 sm, qalinligi 1 – 3 sm bo'lgan, shirin-sho'r-nordon ta'mli an'anaviy fransuz pishlog'i.

Pulin'i – sen – p'er (Pouligny-Saint-Pierre) – fransuzlar bu echki sutidan tayyorlangan pishloqni cho'zilgan piramida shakli uchun moviy qobiqli "Eyfel minorasi" deb ataydilar.

Pokamadur (Rocamadour) - echki sutidan tayyorlangan yumshoq fransuz pishlog'i.

Valanse (Valencau) – piramida shaklidagi, yog'och kuli sepilgan, echki sutidan tayyorlangan fransuz pishlog'i. U 220 gram og'irlikdagi prizmaviy piramida ko'rinishga ega. Qobiq osti mayin mag'iz, sal shirin ta'mli, yong'oq ta'mli. O'rmon yong'og'ining ta'mi kul ta'mi bilan aralash holda og'izda uzoq saqlanadi.

Ker de shevr (Coeur de Chevre) – tarjimasi yurak ma'nosini beradi. Uni 150 grammali kichik yurakchalar ko'rinishida ishlab chiqariladi. Yetilish muddatiga bog'liq holatda mag'izi turli – mayin oqdan - ko'k ranggacha bo'ladi. Pishloq juda mayin va qo'pol emas. Mag'izda mayda donachalar uchraydi. [13]

Manchego – Ispaniyada ishlab chiqariladigan echki sutidan tayyorlangan qattiq pishloq. Yashil tusli qobiqqa ega, bir necha oy namakobda saqlangan.

Pastor (El Pastor) - echki yoki qo'y sutidan tayyorlangan qattiq pishloq.

Sel – syur – Sher (Selles-sur-cher) – to'q rangli qobiqli, ko'mir changi bilan o'ralgan fransuz yumshoq pishlog'i.

Sent-mor de Turen (Sainte-maure-de-touraine) - echki sutidan tayyorlangan silindr formadagi, uzun tayoqchalar o'tgan fransuz pishlog'i. Tarixiy xujjatlarning guvohlik berishicha, bu pishloqning tayyorlanishi VIII – IX asrda Karolinglar hukmronligi davrida paydo bo'lgan.[14]

Tangi (Tangy) - echki sutidan tayyorlangan juda spesifik ko'k tusli pishloq.

Shabishu-dyu-puatu (Chabichoou du Poitou) - Fransuz pishlog'i. Mag'izi fil suyagi rangli. Qobigi oq yoki kulrang - ko'k tusli mog'orga ega bo'ladi.

Shavin'ol yoki krotan de shavinol (Chavignol) - echki sutidan tayyorlangan yumshoq fransuz pishlog'i.

Shavru (Chavroux) - echki sutidan tayyorlangan yumshoq fransuz pishlog'i.

Echki suti. Echki suti kimyoviy tarkibi va bir qator xossalari ko'ra qoramol sutiga yaqin bo'ladi. Echkilarning sut beruvchanligi baland emas, 120-150 kg, laktatsiya davrining davomiyligi 8 – 10 oy. To'g'ri seleksion ish olib borilganda ularning sut beruvchanligini oshirish mumkin. Shunday ma'lumot bor: zaanen naslli bitta echkidan 3,8% yog'lilikli 3200 kg sut olingan. Zakavkaz qoramolchilik ilmiy tekshirish institutida aniqlanishicha mingrel echkilari orasida ham rekordchilari uchraydi va ular 600-650 kg sut beradi. M. F. Levi bergan ma'lumotlarga ko'ra O'zbek farmasevtika instituti echkichilik fermasida ayrim hayvonlardan 314 laktatsiya kunida 4-5% yog'lilikka ega 1705 kg sut olingan.[15]

Sh. L. Xachatriyap ma'lumotlariga ko'ra, angor echkilari sutining yog'liligi 4,85%, laktatsiya davri oxirida 6,67 %. [14,16]

Echki suti asosan qo'y suti bilan aralashtirilib qayta ishlanadi va brinza, hamda mahalliy namakob pishloqlar tayyorlashda foydalaniladi. Echki sutidan tayyorlangan yog' yuqori sifatli emas, noxush hid va ta'mga ega. G. S. Mnixov bu holatni shunday tushuntiradi: bu spetsifik hid sutga uchuvchan yog' kislotalarning tushishi yoki yutilishi tufayli paydo bo'ladi va ular sutga echkining teri yog'idan, echkilarning iflos saqlanishidan tushadi. G. S. Inixov ma'lumotiga ko'ra echki suti yog'i fizik-kimyoviy konstantalari jihatidan qoramol suti yog'idan kam farq qiladi. Echki suti rang beruvchi pigmentlarning kamligi tufayli qoramol suti yog'iga qaraganda ko'proq oq rangga ega. Unda yog' donachalari qoramol suti yog'iga qaraganda maydaroq.

Samoxin S.B, Molokov Yu. G, Sivkov O.V . soynali oqsil maxsuloti asosida soya pishloqi ishlab chiqarish mavzusida patentga mualliflik qilshadi. Kuchli kislotalarning neytral tuzlari qatnashgan xolda nokaogulent yordamida soya suti quyushtiriladi. Bu yerda neytral tuzlar soya suti og'irligiga nisbatan 0,04-2,5 % ni tashkil etib, ular globulin oqsillarini nokogulyatsiya jarayonini sekinlashtiradi. Quyuqlashgan maxsulotni press yordamida ajratish uchun harorat 68° C bo'lishi kerak. Kuchli kislotalarning neytral tuzlari sifatida oziq- ovqat tuz kristallari yoki suvli eritmasi qo'llanilishi mumkin. Quyuqlashtirishda oldin soya suti 75-110 °C gacha qizdirish mumkin. Quyuqlashtirishda koagulent komplekslaridan foydalanish mumkin. Uning tarkibida sut kislotasi bo'lishi shart. Koagulent soya suti og'irligiga nisbatan 1-2 % asta sekin qo'shiladi va aralashtirib

turiladi. Presslashdan oldin elab olingan maxsulotga oziq- ovqat qo`shimchalari qo`shish mumkin. Misol dengiz karami, timin, chesnok, ko`kat va boshqalar. Presslash tugagach olingan soya pishlog`i 18-20 °C gacha sovitiladi va qadoqlanadi. Bu ixtiro oziq-ovqat soxasiga tegishli bo`lib tvorog, pishloq, sous, buterbrod va diserdlar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. [7]

Ritsel Vladimir Matveevich 2570555 raqamli ixtiro to`ldiruvchi bilan pishloq ishlab chiqarishga tegishli bo`lib, bu usulda sut pasterizatsiyalanadi, So`ng ma`lum haroratgacha sovitiladi va sirka kislotasi, kalsiy xlorid sut quyultiruvchi fermentlar (mikrobiologik) qo`shilishi 30-60% og`irlikda to`ldiruvchi qo`shilishi, aralashtirish, quyultirish osh tuzi qo`shish va qadoqlashdan iborat. Bu usul yordamida qovushqoq, elastik tuzilishida saqlaydigan 50-60 % og`irlikda to`ldiruvchidan tarkib topgan maxsulotlar ishlab chiqarish mumkin. [8]

2290819 raqamli ixtiro ishlab chiqarish sanoatiga bog`liq bo`lib, qattiq pishloq ishlab chiqarishda qo`llaniladi. Qattiq pishloq ishlab chiqarish quyidagilardan iborat. Dastlab xom- ashyoni tayyorlash, pasterizatsiyalash, uyitqi haroratigacha sovitish, xlorli kaltsiy va selitra qo`shish va quyuqlashish. Olingan quyuq maxsulotni kesib olish, g`ovak teshiklarni hosil qilish va maxsulot tayyor bo`lguncha saqlash, shaklga keltirish va quyuqlashtirish. Buning natijasida yuqori sifatli pishloq olinadi va pishish ya`ni tayyor bo`lish vaqti qisqaradi. 60-35 sutkada maxsulotning organoleptik ko`rsatkichlarini yaxshilaydi. Ixtiro mualliflari: Nagibina .N.A., Ivanov.v.L, Lisin.P.A ,Anikina .A.P. [9]

Bu ixtiro pishloq tayyorlashda formaga (shakl) o`rnatish, qizdirish, formadan ajratib olish va pishishni qamrab oladi. Forma o`rnatish jarayonidan oldin qattiq va suyuq fazalar aralashtirgichga suv, yog` va laktoza ko`rsatkichi kam bo`lgan sut oqsili kukuni qo`shiladi. Aralashtirgich harakati tezligi kamida 1500ayl/min vacuum ostida va harorati 45-55 °C oralig`ida emulgirash, gomogenizatsiya va deaeratsiya jarayoni uchraydi va natijada gomogenlashgan pishloq aralashmasi hosil bo`ladi. Undan keyin 40 °C gacha sovitiladi va aralashtiriladigan, oksidlaydigan zardob qo`shiladi va gomogenizatsiyalanadi. [Patent.RU. 2376776 , Mualliflar: Bude Jan-fransua, Snapp Jan-Jak, Shoven Bernar, David frank] [10]

Artyuxova S.I, Lashina N.V, Xamagaeva I.S lar ixtiro si sut sanoatiga bog`liq bo`lib, sut maxsulotlari va oqsilli sut maxsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu usulda sut

qizdirilgach sepatatsiyalanadi va natijada yog`liligi 10% quyuq masulot sovitiladi va gomogenizatsiyalanadi. Keyinchalik bifidobakteriya yoki sut bakteriyali aralashmasi suyuq zardobi qo`shiladi. Keyinchalik bu aralashma pasterizatsiyalanadi sovitiladi va ilgari tayyorlangan achitqi bilan aralashtiriladi. Bu usulda olingan uy pishlog`ini ozuqaviy va biologic ko`rsatkichi yuqori bo`lib, uning saqlash muddati 2 barobar oshadi, organoleptik ko`rsatkichlari yaxshilanadi va chiqish (tayyor maxsulot) ko`rsatkichlarini oshiradi. [Patent.ru 2289933] [11]



Гост р 52686-2006 Pishloqlar. Umumiy texnik shartlarga binoan;

1.1. Qattiq shirdon pishloqlari ushbu standart talablari asosida texnologik ko`rsatmalarda asosan tayyorlanishi, sanitariya gigiyena normalariga to`gri kelishi, quyidagi talablarga mos kelishi kerak.

1.2. Assortimenti, shakli, o`lchami va massasi.

1.2.1. Pishloqlar quyidagi turlarga bo`linadi:

presslangan, ikkinchi marta yuqori haroratda qizdirilgan, sovet pishlog'i;

presslangan, ikkinchi marta past haroratda qizdirilgan, golland doirasimon, golland bo`lakli, kostromskiy, yaroslav pishloqlari;

presslangan, yuqori sut kislotali jarayonlarda, ruscha katta, ruscha kichik, ruscha bo`lakli, atlet.

2.2.2. shakli, o'lchamlari va massasiga ko'ra pishloqlar quyidagi 1-jadvaldagi ko'rsatkichlarga tog'ri kelishi kerak.

1-jadval.

Nomlanishi	Shakli	o'lchamlari sm.				og'irligi g
		Uzunligi	kengligi	balandligi	diametri	
ovet pishlog'i	og'rito'rtburchak bir oz qavariq tomoni qirralar va yumaloq, qirralarning to'g'ri to'rtburchak bar. yuqori va pastki qirralar oz qavariq bo'lishi mumkin	3-50	3-20	2-17		1,0-18,0
olland pirasimon	bir tekis sharsimon			0-16	3-15	0-2,5
olland to'rtburchak	og'ri to'rtburchak shaklda lekin biroz yon tomonlari qavargan , qirralari biroz dumaloq shaklda.	3-30	4-15	0-12		0-6,0
ostroma shlogi	ast silidr shaklida yon qirralari biroz qavargan, yumaloq qirrali.			10	5-28	0-6,0
aroslav shlog'i	olland silindrli, bir oz qavariq bo'lishi mumkin			5-35	10	0-3,0
ruscha katta	ast silindr shaklda yon tomonlari biroz			2-16	4-36	2,0-18,0

	avragan va dumaloq qirrali. Yuqori va pastkii qirralari biroz qavargan bo'lishi mumkin.					
kichik				2-16	5-28	0-10,0
uscha to'rtburchak	og'ri to'rtburchak shaklda biroz dumaloq qirrali va yon tomonlari biroz qavargan.	2-34	5-16	0-12		0-7,5
to'rt pishlogi	kvadrat shaklli, biroz dumaloq qirrali va yon tomonlari biroz qavargan.	5-37	5-37	0-13		3,0-16,0

1.3.1. Pishloq ishlab chiqarish uchun quyidagi xomashyo va asosiy materiallar ishlatiladi:

Dastlabki ishlov berilgan sigir suti, pishloq ishlab chiqarish sanoati talablariga mos keladigan;

Qaymoq va yog'sizlantirilgan sigir suti, pishloq ishlab chiqarish sanoati talablariga mos keladigan

Tomizgi va bacterial preparatlar – texnik norma xujjatlariga to'g'ri keladigan;

Shirdon kukuni, ferment preparatlari, O'zbekiston Respublikasi meyoriy xujjatlariga mos keladigan;

Osh tuzi – Gost 13830 bo'yicha birincha navdan past emas, maydalangan yodlanmagan, pishloq laxtasini tuxlashda "Ekstra" navidan past bo'lmasligi kerak.

Texnik kaliy nitrat – Gost 19790 marka A.B.V birinchi nav;

Natriy nitrat - ГОСТ 4168; bo'yicha

Pishloqlarni ustkiqismini qoplash uchun polimer plyonkalar O'zbekiston Respublikasi meyoriy xujjatlariga mos xolda ishlatiladi.

1.3.2. Pishloqlar fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari quyidagi 2-jadvalga mos kelishi kerak. 2-jadval

Pishloq nomi	Massa ulushi % larda		
	Quruq moddaga nisbatan, an kam emas	Amlik, ko'p sh tuzi mas.	
Sovet pishlog'i	90	2	5-2,0
Poland doirasimon	90	3	5-2,5
Poland 'g'rito'rtburchak	85	4	5-2,0
Polstoma pishlog'i	85	4	5-2,0
Paroslav Pishlog'i	85	4	5-2,0
Ruscha pishlog'i	90	3	3-1,8

1.3.3 Orgonoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha pishloqlar quyidagi talablarga mos kelishi kerak. 3-jadval

Tayyorlanishi	Orgonoleptik ko'rsatkichlari				
	Tashqi ko'rinishi	Tamini va xidi	Qonsistensiyasi	Rasmi	Xamir rangi
Sovet pishlog'i	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va	Pishloq tamli, shirinroq, yozroq nordon	giluvchan, bir jinsli	Pishloq kesimida sferik yoki ovalsimon ko'zchalar bo'lishi, shakli imerti o'rtacha 4 mm dan kam bo'lmasligi,	Och sariqdan sariqqacha, bir xilda tarqalgan.

	vakuumlangan, shlab chiqaruvchi korxona muxri bo'lishiga ruxsat etiladi				
Golland oirasimon	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va vakuumlangan,	Pishloq tami yaxshi kelib turadi, kam miqdorda achchiq, kamrod nordon.	Egiluvchan xamirli, egilishda nisbatan inuvchan, bir jinsli	ishloq kesimida erik, ovalsimon yoki qirrali shaklli ko'zchalari bo'ladi. Ular butun massa bo'ylab bir tekisda tarqalgan.	Och sariqdan sariqqacha, bir xilda tarqalgan
Golland o'g'rito'rt burchak	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va vakuumlangan,	Pishloq tamli engil achchiq va yengil nordon tamli.	Egiluvchan xamirli, egilishda nisbatan inuvchan, bir jinsli	ishloq kesimida erik, ovalsimon shaklli ko'zchalari bo'ladi. Ular butun massa bo'ylab bir tekisda tarqalgan.	Och sariqdan sariqqacha, bir xilda tarqalgan
Kostroma pishlog'i	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti	Pishloq tamli, algina nordon	Yumshoq xamirli , egiluvchan, bir jinsli	ishloq kesimida erik, ovalsimon shaklli ko'zchalari	Och sariqdan sariqqacha, bir xilda tarqalgan

	shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va vakuumlangan,			bo'ladi. Ular butun massa bo'ylab bir kisda tarqalgan	
Yaroslav pishlog'i	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va vakuumlangan,	Mo'tadil ishloq ta'mli , algina nordon	Yumshoq xamirli , giluvchan, bir jinsli	ishloq kesimida erik, ovalsimon shaklli ko'zchalari bo'ladi. Ular butun massa bo'ylab bir tekisda	Och sariqdan sariqqacha,bir xilda tarqalgan
Ruscha pishlog'i	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va vakuumlangan,	ishloq ta'mli nim nordon	Yumshoq xamirli , giluvchan, bir jinsli	ishloq kesimida erik, ovalsimon shaklli ko'zchalari bo'ladi. Ular butun massa bo'ylab bir tekisda	Och sariqdan sariqqacha,bir xilda tarqalgan
Atlet pishlog'i	Qobiq mustaxkam, bir tekis, nuqsonlarsiz va qabiq osti	ishloq ta'mli nim nordon	Yumshoq xamirli , giluvchan, bir jinsli	ishloq kesimida erik, ovalsimon shaklli ko'zchalari	Och sariqdan sariqqacha,bir xilda tarqalgan

	shishlarsiz, parafinlangan, polimer plyonka bilan qoplangan va vakuumlangan			bo'ladi. Ular butun massa bo'ylab bir tekisda	
--	---	--	--	--	--

Pishloq yuzansini salftkasiz presslashda perforatsiya izi qolishiga yo'l qo'yiladi. Maxsus parafinli, polimer, kombinatsiyalangan tarkiblar yoki polimer pleyonkalar, pishloq yuzasiga mustahkam yopiladi.

Pishloq yuzasi toza.

1.3.5. Standart talablari tashqi savdo birlashmasi buyurtmalariga mos holda aniq lashtiriladi.

1.4. Markalash

1.4.1. Har bir xom-ashyoda ishlab chiqarilish sanasi (oy,kun), pishloqni pishirilish soni(raqamlar pishloq boshchasining ustki polotnosining markaziga joylashtiriladi) va quyidagilarni ko'rsatuvchi ishlab chiqarish markasi bo'ladi.:

Quruq moddada yog'ning massa ulushi, %;

Ishlab chiqaruvchi korxona raqami;

Korxona joylashgan viloyatning qisqartirilgan nomi (shahar, respublika) (belgilangan tartibda o'rnatilgan shartli nomi).

Ishlab chiqarilish markasi pishloqqa shtamp yordamida Rossiya Federatsiyasi xuquq akti normativlari bo'yicha foydalanishga ruxsat etilgan yuvilmayigan, zararsiz bo'yoqda qo'yiladi; ishlab chiqarish sanasi va qaynatilish raqami - pishloq xamiriga Rossiya Federatsiyasi xuquq akti normativlariga ko'ra oziq-ovqat mahsulotlari bilan kontaktga ruxsat etilgan kazein yoki plastmassa raqamlar, yoki bosma metal raqamlar presslash yo'li bilan qo'yiladi.

Marka shakli, o'lchami va pishloq boshchasida joylashishi - GOST 7616*, GOST 11041* va pishloq uchun normativ hujjatlar bo'yicha bo'ladi.

1.4.2. Taraning maxsus bir tomoniga aniq, mustahkam yuvilmaydigan bo'yoqda, trafaret yordamida tashqisavdo birlashmasi buyurtmasi talablari bilan kelishilgan holda

markirovka rekvizitlari kiritiladi. Yashikning oldingi tomoniga trafaret yordamida xuddi shu bo'yoq bilan ko'rsatib qo'yiladi: "(davlat nomi) tayyorlangan".

1.4.3. Tashish markirovkasi GOST 14192 ga binoan manipulyatsion belgi "Quyosh nurlaridan saqlang" qo'yiladi.

1.5. Qadoqlash.

Pishloq yog'och yashiklarga qadoqlanadi – GOST 10131 bo'yicha va yog'och barabanlarga – normativ xujjat asosida, qoplamali oberton qog'ozga GOST 8273 bo'yicha.

Pishloqlar taraga joylashdan oldin oberton qog'ozga GOST 8273 bo'yicha, yoki pergamentga GOST 1341 bo'yicha, yoki pergamentosti qog'ozga GOST 1760 bo'yicha o'raladi.

Har bir yashik yoki barabanga bir nom, bir nav, bir xil ishlab chiqarilish sanasi va bitta qaynatilish nomeriga ega pishloq joylashtiriladi. Taraning tashqi tomoni metal lenta yoki mis sim bilan hoshiyalangan bo'lishi kerak.

2. Qabul qilish

2.1. Qabul qilish qoidasi - GOST 26809 bo'yicha.

3. Analiz usuli

3.1. Tanlash usuli va analizga namuna tayyorlash - GOST 26809 bo'yicha ; chziqli o'lchamlarini va pishloqning massasi - GOST 3622.

3.2. Yog'ning massa ulushini aniqlash - GOST 5867* bo'yicha, namlik - GOST 3626 bo'yicha, osh tuzi – GOST 3627 bo'yicha

Pishloqning organoleptik xususiyatlarini baholash mahsulotning (18 ± 2) °C temperaturasida o'tkaziladi.

4. Transportirovkalash va saqlash

4.1. Pishloqlarni tashish transportning barcha turlarida yopiq transportlarda, harakatdagi transport turiga mos keluvchi, tez buziluvchi yuklarni tashish qoidalariga mos ravishda, paketlangan holatda esa harakatdagi transport turiga mos keluvchi, hamda GOST 24597 bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar sharxi qismi xulosasi

- Adabiyotlar sharxida sigir va echki sutini fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganib

chiqdim.

- Echki sutidan pishloq ishlab chiqarishni turlarini taxlil qildim.
- Echki sutidan pishloq ishlab chiqaruvchi mamlakatlarni tajribolari bilan tanishdim.
- Pishloq turlari va ularni tayyorlashga ta'sir etuvchi faktorlarni analiz qildim.
- Pishloq tarkibida mavjud oqsillar sinfini tahlil qildim.
- Turli pishloq turlarini umumiy bog`liqliklarini taqqosladim.
- Sut tarkibidagi quruq modda miqdorini tahlili.
- Chet el olimlarining tadqiqot ishlari bilan tanishdim.
- Qattiq va yumshoq pishloq turlari tarkibini o`rgandim.
- Tuzlash va presslashning yangi usullarini tahlil qildim.
- Yetilish jarayonini uzoq vaqt davomiyligini tekshirdim.
- Organoleptik ko`rsatkichlarini xar xil usullar tekshirdim.

III. TAJRIBA-TATQIQOTLAR QISMI

3.1. Tajriba o'tkazish uchun uslub tanlash va uni asoslash

Mashg'ulotning maqsadi. Pishloq tayyorlash uchun ishlatiladigan sutga qo'yiladigan talablar bilan tantshish. pishloq tayyorlashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Material va asbob uskunalar. Pishloq tayyorlash vannasi; ajratiladigan bortli stol; tvorog uchun cho'mich; sutni pasterizatsiyalash va zardob quyiluvchi idish; pichoq; termometr; shpatel; soat; tarozi; quruq tulup uchun yashik; mutovka (aralashtirgich); osh to'zining to'yingan aralashmasi; plyonka; sichuj (shirdon) fermenti eritmasi; kalsiy xloridning 40% li eritmasi.

Mashg'ulotning mazmuni va o'tkazish uslubi. Qattiq pishloq nomakobda yetiluvchi va saqlanuvchi pishloq guruhiga kiradi. U pasterizatsiya qilingan qo'y, echki yoki sigir sutidan tayyorlanadi. GOST talablariga ko'ra pishloq tarkibida 40-50% quruq modda holatida yog', 4-8% osh tuzi va 49-52% namlik bo'lishi kerak. Sutning shirdon fermenti yordamida tayyorlanadi. Preslangan va shakl berilgandan keyin pishloq nomakobga solinadi (20-22% konsentrat). Osh tuzi mikrofloralarni rivojlanishini oldini oladi va buning natijasida sut-bijg'ish jarayoni etarli miqdorda faol bo'lmaydi. Sut shakari juda sekin yo'qoladi, balki uning oz miqdori pishloqda 2-3 oydan keyin ham saqlanib qoladi (boshqa pishloqlarda 5-10 kundan keyin yo'qolib ketadi) parakazein osh tuzi eritmasida shishadi va qisman eritma holatiga o'tadi. Oqsilning chuqur parchalanishi sodir bo'lmaydi. Agar pasterizatsiyalangan sutdan tayyorlangan sutdan tayyorlangan bo'lsa, 10-15 kunda brinza realizatsiya uchun tayyor bo'ladi. Tayyor brinza nomakobda 10⁰S dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlanadi. Agar pishloq sho'r bo'lsa, uni iste'mol qilishdan avval uy haroratidagi suvda ivitib olinadi. 1kg pishloq tayyorlash uchun 8-10 kg sigir suti yoki yog'sizlantirilgan sut kerak bo'ladi. Qo'y suti esa 2 barobar kamroq ketadi.

Pishloq quyidagi talablarga javob berishi kerak: toza ta'mli va xidli, nordon sutli, me'yorida tuzlangan, maydalanib ketmaydigan, ko'p bo'lmagan miqdorda ko'zli va bo'shliqli. Bo'lak tepasidagi rang, qirqimdagi rangdan farq qilmasligi kerak. Bo'lak og'irligi 0,6-1,5 kg bo'lishi kerak.

3.2. TAJRIBA TAVSIFI

1-tajriba.

Pishloq sifatiga va unumiga (chiqishiga) sut aralashmasining kislotalili, zichligi va yog'liligini bog'liqligini aniqlash tajribasi.

Tajriba quyidagi sxemada bo'yicha olib borildi.

1. Shirdon kukunini (100 litr sutga 2 gr xisobida) teng miqdorda osh tuzi bilan aralashtirildi va aralashmani 0,3 litr qaynatilgan va 30°C gacha sovutilagan suvda eritildi
2. Vannani shyotka yordamida qaynoq suvda (50°C), yuvuvchi eritmadan foydalangan holda yuvildi va 2-3 marta toza suvda chayildi. Vannani 1/3 miqdorda qaynoq suv bilan to'ldirildi, qapqog'ini berkitib 15 minut isitildi. Isitishdan keyin vannadagi suvni to'kib tashlandi.
3. Quruq modda hisobida yog' bo'lgan pishloq olish uchun toza yog'lili 4.0 % bo'lgan echki suti va yog'i olingan sut turli nisbatlardagi aralashmasini tayyorlandi
4. Aralashmalarni idishga quyib 20 minut 65 °C haroratda pasterizatsiya qilindi, keyin uni 32-34° darajagacha sovutildi va vannaga quyildi.
5. Kislotaliligini, zichligini, yog' miqdorini va quruq modda miqdorini (xisob usulida) aniqlash uchun aralashmalardan o'rtacha namuna olindi. Xar bir aralashmaga tegishli ko'rsatkichlar belgilab qo'yildi
6. Aralashmalarga kalsiy xloridning (100 litr aralashmaga 10-15 gr hisobida) 40% li eritmasini qo'shildi.
7. Me'yorga ega bo'lgan qattqlikni olish uchun shirdon aralashmasi qattqligini aniqlash talab etiladi. Buning uchun 100 ml tayyorlangan sutga pipetka yordamida 10 ml shirdon eritmasi qo'shiladi va tezlikda aralashtirildi. Eritmani qo'shish vaqti bilan, qattqlik hosil bo'lishgacha bo'lgan vaqt, shirdon eritmasi mustahkamligini bildiradi (daqiqalarda).
8. Qayta ishlanadigan aralashmaning shirdon eritmasiga ehtiyojini quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$R = MK \cdot 0,1 / (V \cdot 60),$$

Bu yerda: R-shirdon eritmasi miqdori: litr; M-aralashma miqdori, litr; K-shirdon eritmasi qattiqligi, sekund; V-belgilangan qattiqlashish vaqti, minut.

9. Aralashmaga kerakli miqdorda eritma qo'shildi, aralashtildi va laxta xosil bo'lguncha tinch qo'yildi.

10. Laxtani yonboshlatib shpatelga tushurildi va engil ushlab turgan holda sinishiga qarab qotishmaning tayyorligini aniqlandi. Tayyor qotishma shpatelda bo'lakcha qoldirmay sinadi.

11. Stolga parlangan va sovutilgan doka to'shaldi, chetlari erkin ochilib turishi kerak. Stol teshigi tagiga suyuqlik uchun idish qo'yilgan.

12. Tvorog kovshida dokaga 2-3 sm qalinlikdagi qotishma qo'yildi.

13. Zardobni tezroq ajralib chiqishi uchun qotishmani uzunasiga va ko'ndalangiga qirqildi. Doka uchlarini birlashtirib bog'landi va 8-10 minut ushlab turildi.

14. Doka echildi va massani ikkinchi marta qirqildi. Preslashni 1 kg ga 0,5 kg, 1 kg ga 2 kg, 1 kg ga 3 kg, 1 kg 4 kg va xakozo bosim ostida 10-15 minutga 2 martadan o'tkazildi.

15. Xosil bo'lgan pishloq massasini 10-15 sm kenglikda va 7-10 sm qalinlikda taxtacha shaklida qirqildi, ularni sovuq suv bilan sovutildi va (20-22 % li) to'yingan osh tuzi eritmasiga etiltirish uchun solib qo'yildi.

16. Bir sutkadan keyin pishloq massasini barcha tomonlarini tuz bilan ishqalanib, bo'laklar yashiklarga jips qilib joylandi va ustidan nomakob quyib qo'yildi. Tayyorlangandan 5-6 kun o'tgandan keyin pishloqlar sifatini aniqlash uchun namunalar olindi.

2- tajriba:

Pishloq chiqishiga shirdon fermenti miqdorini tasirini o'rganish tajribasi.

Tajribani bajarish uchun uskuna va jixozlar 1- tajribadagi kabi tayyorlandi. Echki sutidan 10 litr olib uni 70 °C da pasterizatsiya qildim va 35 °C gacha sovutdim. Jarayon to'liq kechishini nazorat qildim. Sovugan sutga 40 % li CaCl_2 dan 1,5 gr qo'shildi. Olingan echki suti aralashmasini teng miqdorda 2 litrdan idishlarga bo'lindi. Idishlarga turli nisbatlarda shirdon fermenti etirmasidan qo'shildi. Aralashmalarning pH ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Sutni ivishi uchun termostatga qo'yildi. Shirdon fermenti miqdori turlicha bo'lganligi uchun laxta xosil bo'lishi turli vaqtlarda sodir bo'ldi. Xosil bo'lgan laxtani 2-3 sm kattalikda kubik shaklida kesildi va ikkinchi marta oqsillarni kaogulyatsiyaga uchrashi uchun qizdirildi va 10-15 daqiqa ushlab turildi. Olingan massa 1 kg ga 20 kg yuk bilan 2-3 soat davomida presslab qo'yildi. Xosil bo'lgan pishloqlar massasi, namligi, organoleptik ko'rsatkichlari tekshirildi. Barcha namunardaning ko'rsatkichlari bir xil bo'lguncha ishlov berilishi ta'minlanishi kerak. Olingan pishloqlar 20-22% li, 8-10°Sli osh tuzi eritmasiga 3-5 kun solib qo'yiladi. Tuz pishloqda kechadigan mikrobiologik, fermentativ va fizikaviy, ximiyaviy protsesslarni boshqarib turadi. Pishloqlar yetiltiriladi. Tajribadan olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Namuna t/r	Sut miqdori (litr)	Shirdon fermenti miqdori (gr)	pH ko'rsatkichi	Etilish vaqri (min)	Pishloq chiqishi %
1.	2 litr	0,02	3.4	180	12
2.	2 litr	0,04	3.5	150	13
3.	2 litr	0,06	3.4	120	14
4.	2 litr	0,08	3.4	90	15
5.	2 litr	0.1	3.5	60	16

Shirdon fermenti (Sichujniy ferment) Sutning quyulishi (laxta hosil qilishi) – sir ishlab chiqarishdagi asosiy jarayon. 2 – 3 haftalik buzoqcha shirdonidan ajratib olingan ekstrakt sutni laxta hosil qilishi uchun eng yaxshi fermentdir. Hozirgi vaqtda qo'zichoq shirdonidan ham keng foydalanilmoqda. Shirdon fermentidan tashqari sutni laxta hosil

qildirish uchun pepsin ham ishlatiladi. Uni cho'chqa, qo'y, sigir oshqozonidan ajratib olinadi.

Oxirigi vaqtda sanoatda mikrobdan kelib chiqqan fermentlar ham ishlab chiqarilmoqda.

Shirdon fermenti preparatlari. Shirdon fermentini maxsus korxonalarda quritilgan shirdonlardan olinadi. Bu ferment (poroshok) unga, upaga o'xshash ko'rinishda bo'ladi. Buning uchun shirdonlar namokobga solinib, undagi barcha fermentlar ekstraktlanadi. Bu (eritma) ekstraktdan ferment osh tuzi yordamida cho'ktirilib, fil'trlanadi (fil'tr – pressda) va tsentrifuga yordamida namsizlantiriladi. Vakuum – quritish apparatida quritiladi.

Quruq ferment preparati osh tuzi bilan ma'lum darajada quyultirish (laxta hosil qilish) qobiliyatiga ega (poroshok) kukun hosil qilish uchun aralashtiriladi.

Shirdon kukuni kuchi deganda 1 qism shirdon fermentining 35 °S haroratda 40 min vaqt ichida ta'siri ostida ivigan (laxta hosil qilish) sut qismlari soni tushuniladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, agar shirdon kukuni kuchi 1:10000 ga teng bo'lsa, 1g shirdon kukuni 100000 g yoki 100 kg sutni ivita oladi. Lekin sanoatda sarflash me'yori yuqori –2,5 g 100 kg sutni ivitish uchun qilib olingan, chunki ko'pincha achitish harorati 35 °S dan pastroq, davri 40 minutdan kamroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun zavodlarda 1% li shirdon kukuni quvvatini ham aniqlash mumkin.

Shirdon fermenti qo'shilgandan boshlab laxta hosil bo'lguncha o'tgan sekundlarda ifodalangan vaqt eritma quvvati deyiladi.

Demak, bu vaqt (quvvat) qancha ko'p bo'lsa, achitqi tarkibidagi shirdon fermenti miqdori shuncha kam bo'ladi.

